



**O‘zbek xalq ertaklarda xalq tabobati va uning badiiy talqini  
(“Luqmoni hakim” ertagi misolida)**

M.Matkarmova – UrDU o‘qituvchisi

Xalq tabobati – ajdodlar tajribasiga tayangan, xalq urf-odatlarida o‘z tasdig‘ini topgan an’anaviy tibbiyotning davolash usullaridir An’anaviy tibbiyot an’anaviy bilim sohasi sifatida xalq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelgan va bu xalq ertaklarida o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Tabiblar barcha sog‘lomlashtirish usullarini dorivor va dorivor bo‘limganlarga bo‘lishdi. Dorilar o‘z navbatida o‘simlik, hayvon va minerallarga bo‘lingan. O‘simlik dori-darmonlari gullar va mevalardan ildizlarga zarar bermasdan tayyorlangan. Qalmoq tabiblarining faoliyatida o‘simliklarga g‘amxo‘rlik, ehtiyyotkor munosabat juda xarakterlidir. Turli kasalliklarni o‘simliklardan tayyorlangan damlamalar, losonlar va iksirlar shaklida davolash uzoq vaqtidan beri keng qo‘llanilgan. Bu ertaklarda ham aks etgan<sup>6</sup>.

Qadim zamonlardan shakllanib kelgan tibbiyotga oid qarashlar o‘zbek folklor namunalarida, xususan, ertaklarida ham ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan. Ertaklarda qahramonlarning xastalanishi va ularning qandaydir dorilardan, giyohlardan yoki sehr va duolardan shifo topishi motivlari shular jumlasidandir. Shu o‘rinda “Luqmoni hakim”<sup>7</sup> ertagida uchraydigan xalq tabobatiga oid qarashlar va ularning badiiy talqiniga nazar tashlasak. Asarda kimda kim sil dardiga yo‘liqsa tol daraxtining salqinida o‘tirsa, uning dardini ketgazishga quvvati yetishi aytildi. Tut daraxtining tilidan esa “mening po‘stlog‘imni shilib olib, qozonga solib, suviga cho‘milgan odamga yara chiqartirmayman” degan jumlalar aytildi. Darhaqiqat xalqimiz orasida tut daraxtining shifobaxshligi haqida inonchlar talaygina. Kimda kim tut daraxtining mevasidan bir marta to‘yib yesa bir yilgacha hech qanday xastalikka uchramaydi deb ishoniladi. Tut mevasi shirin va vitaminlarga boyligi uchun inson immune tizimini kuchaytirishga yordam beradi. Tut mevasi qadimdan

<sup>6</sup> Goryayeva G. Традиции народной медицины в мотивах волшебной сказки калмыков. НОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ТУВЫ.2018

<sup>7</sup> Ўзбек халқ ижоди. (кўп тўмлиқ) – Т.:Faafur Fu'lom nomidagi adabiёт va san'yat nashriёti, 1990. -56.



to bugungi kungacha ekib ko‘paytiriladi, yangiligidan iste’mol qilinadi, shinni murabbo, mayiz tayyorlanadi.

Mazkur asarda tabib Luqmoni Hakim ovqatlanayotgan vaqtida tomog‘iga suyak tiqilib qolgan podshohni noan’anaviy usullardan foydalanib davolaydi. Tabib podshohga o‘g‘lini so‘yib qonini ichsagina dardiga shifo topishi mumkinligini aytadi. Vazirlar podhohni bazo‘r ko‘ndirishgach, bolani uning ko‘z oldiga keltirishadi va ikkisining orasiga choyshab tortib, choyshabningorqasida bolani emas, bir echkini so‘yishadi. Echkening ovozini bolasining ovozi deb o‘ylab, g‘am va anduhi ichiga sig‘may ketgan podshoh alamdan “Voy bolaam” deb baqirib yig‘lay boshlaydi va uning halqumiga tiqilib qolgan suyak otlib chiqib ketadi. Natijada Podshoh dardidan halos bo‘ladi, bolasi ham tirik qoladi. Bu yerda tabib bemorni hech qanday dori-darmonsiz qichqirtirish yordamida davolaydi.

Ertak davomida Luqmoni Hakimda yor-u do‘stlari unda hayron qolarlik, foydali gaplardan gapirib berishini so‘raganlarida u bugungi kunda ham xalq tabobatida qo‘llanilib kelinayotgan shifobaxsh o‘simplik va mevalar haqida so‘zlaydi. Jumladan, har qanday odam yalpizning tomirini kavlab olib, suvga solib yuvib, oftobda quritsa va sutga solib qaynatib ichsa odamning ichidagi toshni eritib yuborishini aytadi. Bilamizki yalpiz o‘simpligi xalqimiz orasida tinchlantiruvchi va bosh og‘rig‘ini qoldiruvchi xususiyatlari bilan mashhur. Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma va damlamasidan ko‘ngil ayniganda hamda o‘t haydovchi vosita sifatida foydalaniladi.

Tabibning keying maslahati esa Behi mevasining shifobaxshligi haqida. Behining urug‘ini olib, urug‘ o‘rniga dumba yog‘i solib pishirib yeyilsa yo‘talni tuzatishini aytadi. Behi mevasiining shifobaxshligi qadim zamonlardan ma’lum. Xalq tabobatchiligida behi mevasining sharbati bilan, astma, yurak, sariq, xiqichoq, qorin og‘rig‘i dizenteriya kasalliklarini davolashgan. Bundan tashqari behidan bedarmonlik, kamqonlik, yo‘tal, me‘da jigar va buyrak kasalliklarini davolashda ham foydalanilgan. Abu Ali Ibn Sino behi mevasidan tayyorlangan damlamani dizenteriyani davolashda, behi shirasi bilan astma, qon tupurish va qayt qilishni to‘xtatishda, chanqoq hamda miya og‘rig‘ini qoldirishda ishlatgan. Behi urug‘i asosida dori-darmonlar tayyorlab o‘pka va nafas yo‘li kasalliklarini davolagan. Xalq tabobatida behi urug‘i bilan uzum sharbatining qaynatmasi kamqonlikda, ichburug‘da,



bavosil kasalliklarini davolashda yaxshi ta'sir qiladi. Ilmiy medetsinada behi urug‘idan tayyorlangan qaynatma ko‘z og‘riganda, qabziyatda, yuqori nafas, yo‘llari shamollaganda davo sifatida ishlataladi. Biz tahlilga tortganimiz “Luqmoni Hakim” ertagida behining ayna yo‘tal uchun foydali ekanligi ta’kidlangan.

Tabibning so‘ngi eng foydali maslahati esa har haftada hammomga tushib poklanib turish har qanday xastalikning oldini olishini ta’kidlaydi. Zero, poklik bor joyda sog‘lom muhit bo‘ladi. Sog‘lom muhitda esa salomatlik bardavom bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, xalq tabobati xalq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelgan va bu xalq ertaklarida ham o‘zining yorqin ifodasini topgan. Xalq tabobatining ertaklardagi talqinini tadqiq etish esa muhim vazifalardan biridir.

